O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

TALABALARNI LOGISTIKA FANINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Jalilov Erkin Ergashevich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
katta o‘qituvchisi
Email: jaliloverkin85@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ta'lim oluvchilarda ta'limga bo'lgan talabni faollashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash sifati va samaradorligi masalalari izchil, ketma-ketligida yoritib berilgan.*

Kalit so‘z: *talaba, kasbiy, innovatsion, kompetentlik, fanlararo, integratsiya, shakllantirish, kasbiy faoliyat, integrativ dars, samaradorlik, natija.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛОГИСТИКИ

Аннотация. *В статье последовательно, последовательно освещаются вопросы формирования профессиональных компетенций студентов при подготовке их к инновационной инженерной профессиональной деятельности, активизации образовательного спроса у обучающихся, качества и эффективности подготовки к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *студент, профессионал, инновационный, компетентность, междисциплинарность, интеграция, формирование, профессиональная деятельность, интегративный урок, эффективность, результат.*

DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN STUDENTS THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE TEACHING OF LOGISTICS

Annotation. *The article consistently highlights the issues of the formation of professional competencies of students in preparing them for innovative engineering professional activities, the activation of educational demand among students, the quality and effectiveness of training for professional activities.*

Key words: *student, professional, innovative, competence, interdisciplinarity, integration, formation, professional activity, integrative lesson, effectiveness, result.*

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, Kadrlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tayyorlash milliy dasturi kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya nazariyasi va metodikasi jahon ta'lim standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash bosqichi kechayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimi sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilgor texnologiyalarni tatbiq etish, ta'lim mazmunini integratsiyalash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, ta'lim – tarbiyaning asosiy maqsadi innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ta'lim oluvchilarda ta'limga bo'lgan talabni faollashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini yuksak darajaga ko'tarishdan iborat. Shu bois tadqiqot davomida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma malaka va kompetensiyalarini zamonaviy talablarga mos ravishda shakllantirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni va yangicha yondashuvlarni qo'llash, ta'lim sifatini nazorat qilish muammosi bo'yicha pedagog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilindi.

H.O.Uzoqov, H.O.Jo'rayev, SH.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev, M.N.Karimova, D.P.Nazarovalar tamonidan ilmiy muammo sifatida qaralib Talabalarni texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqishini, mahsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi. Bo'lajak muhandislarga pedagogik ta'lim berish orqali hozirgi ishlab chiqarish sanoatiga xos texnik-texnologik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslarini egallanishiga erishiladi. bo'lajak mutaxassislarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi va optimal qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Logistika sohasiga oid tadqiqotlarda M. Christopher logistika va ta'minot zanjirlarini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini yoritib, logistika jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va ularni tizimli boshqarish masalalariga e'tibor qaratadi. Ushbu qarashlar bo'lajak logistika muhandislarida tizimli fikrlash, jarayonlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. [1].

U.Sh.Begimqulov ta'limda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, zamonaviy innovatsion texnologiyalar muhitida ta'limni tashkil etish, ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammolari va istiqbollari, ta'lim muassasalarida yagona axborot-kommunikatsiya muhitni tashkil etishning metodik asoslarini tadqiq etgan, oliy ta'lim muassasalari (OTM) uchun elektron o'quv-metodik qo'llanmalari va ularni yaratishga bo'lgan talablarni ishlab chiqqan [4].

D.O.Ximmataliyev tomonidan kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi muammolari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini tasniflash asosida nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mobillik, refleksivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fanlararo integratsiya orqali talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifa va maqsadlarga erishish uchun oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari tizimli ravishda bu ishni amalga oshirishlari zarur.

O'quv fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, tamoyillari, integratsiyaga bo'lgan yondashuv, integratsiya yo'nalishlari, integrativ dasturlar, integrativ dars, integratsiyalashgan kurs modelini yaratish kabi masalalar o'z yechimini kutayotgan eng muxim pedagogik muammo hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammoga oid mavjud adabiyotlar, maqolalar, ishlanmalar hamda ta'lim tizimi amaliyoti tahlili natijasida bo'lajak innovatsion muhandislarini tayyorlash jarayonida quyidagi ziddiyatlar aniqlandi:

• innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiyaning ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi;

• bo'lajak innovatsion muhandislarni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda ta'limning barcha zaruriy jihatlari yetarlicha qamrab olinmayotganligi;

• integrativ yondashuv asosida o'qitish jarayonining samarali shakl va metodlarini aniqlash mezon va ko'rsatkichlarining mukammal emasligi hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning zamonaviy talab darajasida emasligi;

• tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'zini kasbiy-ijodiy rivojlantirishi bilan bog'liq shaxsiy sifatlarini, mustaqil o'quv-metodik faoliyatini kuchaytirish zarurati;

• oliy ta'lim tizimida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda o'quv rejalaridagi fanlarni bloklararo, blokning ichida hamda predmet doirasida integratsiyalashning kasbiy pedagogik ta'lim asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda, kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlari yetarlicha amalga oshirilmaganligi mavjudligini ko'rsatdi.

Bunday mashg'ulotlarni tashkil etish talabalarga nafaqat gumanitar fanlardan texnik sikl fanlarini ajratish, balki ularning o'zaro aloqa (munosabat) larini topish, va kelajakda ishga oqilona va ongli yondashuvga yordam beradi. Talabalar bilan tajriba mashg'ulotlar ham fanlararo aloqalardan foydalanish bilan tashkil etilishi mumkin [2, 3].

Fanlararo laboratoriya ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan o'quv jarayonida, shuningdek, uni qo'llashni topishlari mumkin, bu sohada topshiriqlarni aniqlash va innovatsion kashfiyotlar bilan rivojlantirish mumkin. Fanlar bo'yicha qo'shma fanlararo seminarlar, talabalarga ilm-fan rivojlanishida tarixiy



masalalarni, taniqli olimlar ijodi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ularning ta'sirini ko'rib chiqish imkonini beradi [4].

Fanlararo aloqalarning yagona yondashuvi gumanitar, umumilmiy va maxsus sikl fanlari o'rtasidagi talabalar bilimini baholashni aniqlashda qiyinchilik bilan duch keladi. Ya'ni, talabalar bilimlari darajasi, gumanitar va umumilmiy kafedralari fanlarini o'rganishda egallangan, maxsus fanlarni o'rganish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun bu bilimlar, professor-o'qituvchilar tarkibiga fanlar mazmunini ishlab chiqish uchun sikl fanlar dasturlarini tuzishga nafaqat birgalikda yondashuv, o'quv materialini uzatishga e'tibor bilan yondashishni, balki bilim va ko'nikmalarni baholash uchun ham zarur.

Texnika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida har yili muammolarini hal etishga qaratilgan yangi fanlar paydo bo'ladi. Bu ajablanarli emas, chunki jadal rivojlanayotgan sanoat va iqtisodiyot, insonlar ongini o'zgartirish va insoniyatga yangi kashfiyotlar kerak. Bundan tashqari ta'kidlash kerakki, talabalar bilimini tashxis qilish, fanlararo aloqalar bilan mashg'ulotlarda egallashlari, bu oraliq bosqichlarda muntazam amalga oshirilishi kerak, nazorat qilish nuqtalari va bilimlarni tekshirish rejalashtirilgan joylarda – yakuniy nuqtaga o'tadi. Shunday qilib, kasbiy faoliyat, fanlararo integratsiya tomonidan amalga oshirilishi asosli, agar texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari integratsiya vazifalarini muntazam foydalanish bilan amalga oshirib, amaliy mashg'ulotlarda bajarsa, faqat tajriba mashg'ulotlargina nazariy materiallarni o'rganishda olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. U yoki bu laboratoriya ishlarini bajarishda, murakkab o'quv vazifasini hal etib, talaba muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Bitiruvchi, kasbiy ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirib, mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobat imkoniyatiga ega, kasbiy ko'nikmalarini ijodiy foydalanishga imkon beradi, eng yuqori miqdor va sifat ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi [4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishi fanlararo integratsiyasi talabalarni ilmiy-nazariy va amaliy tayyorlash sifatini yaxshilashda muhim vazifalarni bajaradi, chunki fanlararo yondashuvni qo'llashda amalga oshirish muammolari har bir bosqichda nafaqat ta'lim (o'quv) dasturi, balki zamonaviy talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalari hal etiladi. Har tomonlama (universal), ijodiy, rivojlanayotgan bo'lajak mutaxassis (professional) shaxsi faqat ajralmas pedagogik jarayon sharoitlarida shakllanishi mumkin, muhandisning kasbiy kompetentligi- har bir bosqichi umumiy tamoyillari asosida usullari va maqsadlari yakuniy maqsadiga erishadi [5].

NATIJA VA MUHOKAMA

Kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik-psixologik nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi, fanlararo integratsiya, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasini ta'minlanishiga tizimli yondashildi. Bo'lajak mutaxassislarda shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini klassifikatsiyalash asosida nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mobillik, reflektivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirildi. Kasbiy o'zini-o'zi bilish (II kurs) bosqichida talabalar shaxsining maxsus rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy ehtiyojlari va talablari shakllantiriladi. Ular ishonch va mustaqillikka erishish, nafaqat ta'lim va tarbiya barcha shakllarini o'z ichiga oladi, balki jamoat tashkilotlari va boshqa ishlarida faol ishtirok etadilar. Bu davrda umumkasbiy fanlarga e'tibor kuchaytiriladi. Kasbiy o'zini-o'zi aniqlash (III kurs) bosqichida ixtisoslik tayyorgarlik fanlariga talabalar e'tibori kuchaytiriladi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish motivlari mustahkamlanadi. Bu bosqichda ixtisoslashuvi (mutaxassisligi) boshlanadi, ilmiy-tadqiqotlarga qiziqish ortadi, tanlagan kasbining xususiyatlarini bilib olishadi. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirish (kasbiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tayyorgarlik) bosqichi (IVkurs) bo‘lajak faoliyatini o‘rnatish bilan bog‘liq mutaxassis ishlari usullari va texnologiyalarini egallashga undaydi. Ushbu bosqichda kasbiy faoliyati tajribasida qo‘llash uchun amaliyot joyini tanlashga talab ko‘proq ongli ravishda yondashadi. Talabalar shaxsida kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning har bir bosqichida asosiy e’tibor bu o‘ziga xos fazilatlari – kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirish mutaxassis xususiyatlariga qaratilgan. Hozirgi kunda axborotlar ko‘lamining ortishi, talabalarga beriladigan bilimlar hajmining ko‘payishi o‘qitiladigan fanlar miqdorining ortishiga olib keldi. Bu, esa o‘z navbatida, talabalarga psixologik va fiziologik jixatdan og‘irlik qilib, ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirmoqda, bilimlarni o‘zlashtirish darajasining pasayishiga sabab bulmoqda. Bunday salbiy xolatlarni bartaraf etish uchun o‘quv fanlarini integratsiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal etish zarurati vujudga keldi. Integratsiya tufayli talabalar bilishlari zarur bulgan axborotlar xajmi ma’lum darajada qisqaradi, talabalar zo‘riqishining oldi olinadi va vaqt tejaladi. Darsliklar tahlili va talabalar bilimi monitoringi natijalaridan ma’lum bo‘lmoqdaki, talabalar o‘rganadigan o‘quv materiallarining ko‘lami keng va murakkab ularning batafsil bayon etilishi talabalarni ortiqcha zo‘riqishga, keng xajmdagi ma’lumotlarni eslab qolishga undaydi, shu bilan birga zamonaviy fan asoslari, texnik va ishlab chiqarish texnologiyasidan orqada qolishga olib keladi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlar ta’limi jarayonida integrativ kurslardan samarali foydalaniladi. Masalan, Rossiyada «Atrof olam va chet tili», Fransiyada «Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar», Germaniyada «Texnika va biologiyada suzish» kabi integratsiyalashgan kurslar o‘qitiladi. Shuningdek, Rossiyada adabiyot, tasviriy san’at, musiqaga oid integratsiyalashgan dasturlardan foydalaniladi. AQSHda esa fan texnika, ishlab chiqarish va madaniyatning turli sohalarini o‘zida mujassamlashtirgan dasturlar keng tabdiq etilmoqda. Integratsiyalab o‘qitish muammosining amaliyotdagi ahvolini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu sohada (o‘quv predmetlari mazmunini

integratsiyalash bo‘yicha) bir qancha ijobiy ishlar qilingan bo‘lsada, xali yanada ko‘p ishlarni amalga oshirish zarur, chunki:

- oliy ta’lim muassasalari uchun integratsiyalashgan ta’lim konsepsiyasi ishlab chiqilmagan;

- o‘quv predmetlarining integratsiyalashgan mazmuni va uni o‘qitish metodikasi takommillashtirilmagan;

- o‘quv predmetlari mazmunini integratsiyalash metodlari aniqlanmagan;

- o‘qituvchilar o‘quv predmeti mazmunini integratsiyalashning ta’limiy imkoniyatlarini aniq tasavvur eta olmaydilar.

Fanni o‘qitishda kasbiy yo‘naltirish, fanlar integratsiyasini amalga oshirish va talabalarning ilmiy-nazariy tayyorgarligini ilmiy metodik tayyorgarlik bilan uygunlashtirish ijtimoiy-gumanitar, matematika va tabiiy fanlar va umumkasbiy fanlar bilan integratsiyasini amalga oshirish orqali talabalarda muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va uzviy ravishda kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bulgan g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy yetuklik, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga zamin tayyorlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, biz texnika oliy ta’lim muassasalarida integratsiyani ta’minlash muammolari, pedagogik-psixologik nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi, fanlararo integratsiya, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi hamda talabalarning kompetentligini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ma’lumotlarni yoritishga e’tibor qaratdik.

Quyidagi xulosalarni berib o‘tishni joiz deb topdik:

1. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitishda integratsiyani ta’minlovchi muhim omillardan biri uzviylikdir. Uzviylik ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya va uning natijalarini yaxlitligiga olib keladigan integrativ jarayonlarni ta’minlashning xususiylashgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

funksiyasidir. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida integral bilimlarning vujudga kelishi hamda mazmun va shakl uzviyligini ta'lim-tarbiya jarayonida ta'minlashda qo'llanilayotgan tashkiliy vositalar muhim o'rin tutadi.

2. Ta'limga integrativ yondashuv ham shu o'rinda, integral tizimga nisbatan maqsadli yondashuvning ta'lim mazmunida ifodalanishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Christopher M. *Logistics & Supply Chain Management*. – Pearson, 2016.

2. Uzoqov O.X. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash. O'quv qo'llanma "Buxoro Determinanti" MCHJning "Kamolot" nashriyoti. 2022 y. 171-b.

3. H.O.Jo'rayev, Sh.H.Quliyeva, F.S.To'rabekov, M.N.Karimova "Texnik ijodkorlik va dizayn''. - T.:, "Turon zamin ziyo'' 2015 yil

4. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari: ped.fan.dokt. ... dis. – T.: 2007. – 250 b.

5. Ximmataliyev D.O. O'quv-tarbiya jarayonida talabalarining kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish: Avtoref. dis. ... ped.fan.nom. – T.:, 2003. – 50 b.

6. Talabalarni kompetentli yondashuv asosida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 11(1) ISSN 2181-6883. 113-116 bet.